

SUG'URTA TASHKILOTLARIDA BUXGATERIYA HISOBINI BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

O'smonjonov Muxammadisxoq O'tkirbek o'g'li

*mustaqil tadqiqotchi, "University of economics and pedagogy" NOTM Iqtisodiyot
kafedrası katta o'qituvchisi, muxammadisxoqosmonjonov@gmail.com,*

ORCID: 0009-0004-7005-7202

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimi va blokcheyn texnologiyalarining nazariy-huquqiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishida sug'urta kompaniyalarining o'rni hamda ularning moliya bozoriga ta'siri tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-правовые основы системы бухгалтерского учета в страховых организациях и технологии блокчейн. Кроме того, анализируется роль страховых компаний в экономическом развитии Республики Узбекистан и их влияние на финансовый рынок.

Abstract: This article examines the theoretical and legal foundations of the accounting system in insurance organizations and the use of blockchain technologies. In addition, it analyzes the role of insurance companies in the economic development of the Republic of Uzbekistan and their impact on the financial market.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta kompaniyalari, buxgalteriya hisobi, blokcheyn texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar

Ключевые слова: страхование, страховые компании, бухгалтерский учет, технологии блокчейн, финансовые услуги

Keywords: insurance, insurance companies, accounting, blockchain technologies, financial services

KIRISH

Jahonda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni jadal kechmoqda. Boshqa mamlakatlar qatori O'zbekiston Respublikasida ham bu jarayon davlat masalasiga chiqib ulgurgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Yangi texnologiyalardan biri hisoblangan blokcheyn texnologiyasi moliya va sug'urta sektorini raqamlashtirishning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Shu bois, ushbu mavzuni o'rganish va joriy etish dolzarbdir. Blokcheyn texnologiyasini sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobiga tatbiq etish — buxgalteriya hisobining shaffofligi, ishonchliligi, xavfsizligi va samaradorligini oshirish orqali butun sohaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Jumladan, sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisob-kitoblarida eng muhim talab — bu shaffoflik va ishonchlilikdir. An'anaviy tizimlarda inson omili yoki hujjatlar bilan bog'liq xatoliklar hamda

manipulyatsiyalar yuz berishi mumkin. Blokcheyn texnologiyasi esa yozuvlarni o'zgartirib bo'lmashligi va barcha operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini berishi tufayli yuqori darajadagi shaffoflikni ta'minlaydi. Sug'urta kompaniyalari buxgalteriya hisoboti va moliyaviy ma'lumotlarni tekshirish (audit) ko'p vaqt va resurs talab qiladi. Blokcheyn asosidagi tizimda barcha yozuvlar avtomatik tarzda saqlanib, real vaqt rejimida tekshirilishi mumkin. Bu esa audit xarajatlarini kamaytiradi va tezkor qaror qabul qilishga yordam beradi. An'anaviy buxgalteriya tizimlarida ma'lumotlar ko'plab vositachilar (banklar, brokerlar, tekshiruvchilar) orqali o'tadi. Blokcheyn esa vositachilarsiz, bevosita yozuvlarni amalga oshirish imkonini beradi, natijada tranzaksiya tezlashadi va xarajatlar qisqaradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek tilining izohli lug'atida tabiiy ofatlar, turli baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi deya ta'rif berilgan sug'urta so'ziga O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021 yildagi O'RQ-730-son qarorida sug'urta – muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar sifatida qaralgan.³ Nemis iqtisodchisi Karl Marks esa sug'urtaga shunday ta'rif berdi: Sug'urta kapitalistik jamiyatda xavf-xatarlarni kamaytirish vositasi bo'lib, u mehnatkashlar tomonidan yaratilgan boyliklarni himoya qilishga qaratilgan. AQSH davlatining 32 – prezidenti, iqtisodiy siyosatchi F. D. Roosevelt "Sug'urta – bu kelajakdagi noma'lum xavflarga qarshi ishonchdir." deya ifodalagan sug'urtani rus iqtisodchilaridan biri M.A. Galaburda shunday deb e'tirof etadi: Sug'urta – bu sug'urtalanuvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida yuzaga keladigan, oldindan noma'lum bo'lgan, lekin ehtimoli mavjud bo'lgan xavflar oqibatida yuzaga keladigan zararni qoplashga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Rus iqtisodiy-huquqshunosi S. S. Osipova sug'urtaga shunday ta'rif keltiradi: Sug'urta – bu fuqarolar yoki tashkilotlar mol-mulki va hayotiga tahdid soluvchi ehtimoliy xavflarni iqtisodiy yo'l bilan bartaraf etishga qaratilgan munosabatlar majmui. Sug'urta kompaniyalari faoliyati davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadi va bir qator qonuniy normalarga bo'ysunadi. Ushbu tartibga solish sug'urta bozorining barqarorligini, mijozlarning huquqlarini himoya qilishni va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan. Biz " Sug'urta tashkilotlarida buxgateriya hisobini blokcheyn texnologiyalari asosida

³ <https://lex.uz/docs/-5739117>

takomillashtirish” mavzusini o’rganish jarayonida bir qator xorijiy va o’zbek olimlarining ushbu mavzudagi ilmiy tadqiqotlarini o’rganib chiqdik. Masalan,

1. Karadag B., Zaim A.H., Akbulut A. fikrlariga ko’ra “Blokcheyn texnologiyasi moliya sektori samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va shaffoflik va xavfsizlikni oshirish imkoniyatiga ega. Normativ cheklovlar, shuningdek, masshtablilik va o’zaro muvofiqlik bilan bog’liq muammolar hal qilinishi kerak bo’lgan to’siqlardir.” Yuqoridagi olimlarning fikriga qo’shilgan holda shuni aytish mumkinki, blokcheyn texnologiyasining moliyaviy sektor, jumladan, sug’urta kompaniyalari uchun samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va shaffoflikni ta’minlashdagi imkoniyatlarini o’rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.⁴

2. Chang S. E., Luo H. L., Chen Y. Blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda savdoni moliyalashtirishda potentsial paradigma o’zgarishini o’rganadi. An’anaga ko’ra, markazlashtirilgan operatsion model savdoni moliyalashtirish va treyderlarning biznes jarayonlarini boshqarish usulini boshqaradi. Biroq, markazlashtirilgan organlarga bunday jiddiy bog’liqlik yomon ishlashga, moslashuvchanlik va shaffoflikning yo’qligiga va zararli o’zgarishlarga nisbatan zaiflikka olib keldi. Blokcheyn, taqsimlangan daftar texnologiyasi sifatida o’sib borayotgan e’tiborni tortdi va akkreditiv bo’yicha to’lov kabi eski moliyaviy tartib-qoidalarni buzishi mumkin⁵. Chang S. E., Luo H. L., Chen Y. fikrlariga tayanib bugungi kunda markazlashgan tizimga nisbatan markazlashmagan tizimning o’rni yuqorilayotganini aytishimiz mumkin.

3. Morini, M. Kapital bozorlarida blokcheyn texnologiyasining potentsial qo’llanilishi, shu jumladan, samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilgan. Bizning fikrimizcha, blokcheyn texnologiyasining potentsial qo’llanilishi barcha sug’urta kompaniyalarida ham to’la samaradorlikni ta’minlamasligi mumkin. Sababi, korxonalarining moliyaviy holati va bozordagi konyunkturasi sug’urta kompaniyasi taklif etayotgan xarajatlarni ko’tara olmasligi mumkin.

4. Amsyar, I., Christopher, E., Dithi, A., Khan, A. N., Maulana, S. Blokcheyn va kriptovalyutalar bo’yicha mavjud adabiyotlarni ko’rib chiqib, ularning afzalliklari, kamchiliklari va shaffoflikni oshirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi sug’urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini blokcheyn texnologiyalari asosida takomillashtirish imkoniyatlarini nazariy

⁴ https://www.researchgate.net/publication/378223353_Blockchain_in_Finance_A_Systematic_Literature_Review

⁵ <https://doi.org/10.3390/su12010188>

va amaliy jihatdan o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Uslub	Maqsad	Qo'llanish sohasi
Nazariy tahlil	Sug'urta buxgalteriya hisobi va blokcheyn texnologiyasi bo'yicha ilmiy manbalarni o'rganish	Xorijiy va mahalliy adabiyotlar, maqolalar, qonunchilik
Taqqoslash usuli	An'anaviy buxgalteriya tizimi va blokcheyn asosidagi tizimni qiyoslab, ustunlik va kamchiliklarni aniqlash	Sug'urta kompaniyalari buxgalteriya amaliyoti
Statistik tahlil	Moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlash va tendensiyalarni aniqlash	Sug'urta tashkilotlari hisobotlari, audit natijalari
Modellashtirish	Blokcheyn asosida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan modelini yaratish	Sug'urta kompaniyalarida hisob-kitob jarayonlari
Amaliy tahlil	Real kompaniyalar misolida blokcheynni joriy etish imkoniyatlarini ko'rsatish	Sug'urta tashkilotlari faoliyati
SWOT-tahlil	Kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavflarni baholash	Sug'urta buxgalteriyasi va blokcheyn joriy etish jarayoni

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy natijalarga erishilishi kutilmoqda:

Nazariy natijalar. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning hozirgi holati chuqur o'rganilib, uning kamchiliklari tizimli tarzda yoritish. Blokcheyn texnologiyasining nazariy asoslari hamda uni moliya va sug'urta sohalariga tatbiq etish imkoniyatlari keng qamrovda tahlil qilib samaradorligini o'rganish va baholash. Sug'urta buxgalteriyasiga blokcheynni integratsiya qilishning

konseptual modeli ishlab chiqish. Xalqaro tajribalarni o'rganish orqali mahalliy sharoitga moslashtirilgan uslubiy tavsiyalar shakllantirish.

Amaliy natijalar. Sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya yozuvlarini yuritishda shaffoflik va ishonchlilik darajasi oshadi. Masalan, barcha tranzaksiyalar o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda saqlanishi tufayli audit va nazorat jarayonlari soddalashadi. Xarajatlar va vaqtni tejash: vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri tranzaksiyalar amalga oshiriladi, bu esa sug'urta to'lovlari jarayonini tezlashtiradi. Firibgarlik holatlarining kamayishi: hujjatlarni soxtalashtirish yoki sug'urta da'volarini noqonuniy rasmiylashtirish imkoniyati keskin cheklanadi. Sug'urta tashkilotlari faoliyatida raqamli transformatsiya jarayoni jadallashadi, ya'ni kompaniyalar raqamli iqtisodiyot talablari bilan moslashuvchan ishlay oladi. Mijozlar o'rtasida sug'urtaga bo'lgan ishonch va qoniqish darajasi ortadi, bu esa kompaniyalar uchun yangi mijozlarni jalb etish imkonini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-5739117>
2. https://www.researchgate.net/publication/378223353_Blockchain_in_Finance_A_Systematic_Literature_Review
3. <https://doi.org/10.3390/su12010188>
4. Rejepov, M. (2020). "Sug'urta badallari va ta'rif siyosati", O'zbekiston moliyaviy tahlil jurnal
5. Rizayev N. K. O'smonjonov M.O'. "GREEN" FINANCE INSURANCE OF FINANCIAL RISKS IN GREEN FINANCING ACADEMIC INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTI-DISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION Hosted from Pittsburgh, USA